

JAXON XALQARO REYTINGLARDA MAMLAKATIMIZDA TURIZM O‘RNI VA NUFUZINING OSHIB BORISHI

*Nizomiy nomidagi TDPU
Tarix fakulteti 4-bosqich talabasi
Juraqulova Farangiz*

Annotatsiya: *ushbu maqolada turizm sohasida Jaxon xalqaro reytinglarda mamlakatimizning o‘rni va nufuzining oshib borishi shu bilan bir o‘rinda O‘zbekistondagi turizmning Yevropa mamlakatlari tomonidan e‘tirof etilishi haqida ma‘lumot beriladi.*

Kalit so‘zlar: *xalqao indeks, turistik salohiyat, teleradio kanallar, turist, Fransua Mitteran, Shohi Zinda, Registon, Amir Temur maqbarasi*

O‘zbekiston o‘zining turistik salohiyati bo‘yicha jaxon mamalakatlari orasida 20 talikka kiradi. So‘nggi yillarda yaratilgan sharoit va huquqiy asoslar sayyohlar oqimini keskin suratda ko‘payishiga olib keldi. Ayniqsa, 2017-yildan keyingi o‘zgarishlar uning nufuzini xalqaro reyting va indexslarda yuqori o‘rinlarni olishiga imkon berdi. Jaxon sayyohlik tashkiloti talablari bo‘yicha turizmni rivojlantirishda quyidagilarga e‘tibor qaratish maqsadida qishloq turizmida ham innovatsion yangiliklar yaratilmoqda. Bunga misol qilib Parkent tumanidagi Kumushkon, Zarkent, So‘qoq hududlari mamlakat turizm bozorida o‘zining alohida o‘rniga ega. Ularni rivojlantirish, turistlar oqimini yanada ko‘paytirish xizmatlar hajmi va daromadlarni oshirish maqsadida innovatsion g‘oya va yangiliklar kiritildi. Shu maqsadda Toshkent viloyati hokimligi va Turizmni rivojlantirish departamenti vakillaridan iborat maxsus ishchi guruh Kumushkon hududini o‘rganib chiqdi. Hozirda mavjud vaziyatni xisobga olgan holda xonadonlarning sanitar-gigiyenik holati kuzatildi, tibbiy ko‘rik o‘tkazildi, uyma-uy yurib, turistlarga xizmat ko‘rsatishni tashkil qilish bo‘yicha tavsiyalar berildi. Turizm ob‘ektlari barpo qilish bo‘yicha yangicha innovatsion g‘oyalar berilib, 10 dan ortiq investor bilan muzokara o‘tkazildi. Unda turizm qishlog‘i tashkil etish va innovatsion yangiliklardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan 7 mezonning barchasi mavjud. Shu bilan birga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash va innovatsion texnologiyalardan foydalanuvchi malakali xodimlar sifatini oshirish maqsadida qator xalqaro moliya institutlarining grantlari asosida o‘quv kurslari tashkil qilinadi. Rejalashtirilayotgan ishlar nafaqat turizmni rivojlantirish, balki o‘sha hududda yashovchi aholi turmush darajari va salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi. ...Turizmi ...rivojlantirish borasida asosan ichki turizmga e‘tibor berish maqsadga muvafiq sanaladi. Xususan, jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki ...Xitoy tajribasi o‘rganilganda shu narsa ma‘lum bo‘ladigan ediya‘ni, xitoyliklar tashqi

turizmdan ko‘ra ichki turizmni rivojlantirishga ko‘proq e‘tibor qaratadi¹. Ularda mavjud iqtisodiy zonalarda asosan katta xalqaro darajadagi kompaniyalar va mayda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar ko‘pligini uchratish mumkin. Xususan o‘zimizda ham ichki turizmni rivojlantirish borasida bir qator ishlar qilinmoqda. Chunki bu investitsiya kiritishning oson yo‘li hisoblanadi. Sayyohlarning tashrifiga oxirgi 10 yiliga nazar soladigan bo‘lsak O‘zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar 2014-yilda 155957² ming kishi tashkil etgan bo‘lsa bu ko‘rsatgich 2023-yilning yanvar holatiga ko‘ra 724338³ ming kishini 5baraborga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Bularning barchasi albatta ichki turizmning rivojlantirish borasidagi say-harakatlar natijasi.

Turizm sohasini keng targ‘ib qilishning yana bir xususiyatlaridan biri uni alqaro maydonga olib chiqish va uni televidiya orqali amalga oshirish hisoblanadi. Xalqaro telekanallarda O‘zbekistonning sayyohlik imkoniyatini juda yuqori darajada baholamoqda... va ularni efirga uzatmoqda. Misol tariqasida 2021-yil 23-apreldan 8-maygacha Fransiyaning “STEP by STEP Productions” mediakompaniyasi vakillarining O‘zbekistonga ijodiy safari bo‘lib o‘tgan edi. Ijodiy guruh sayohati O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi hamda respublikamizning Fransiyadagi elchixonasi bilan birgalikda mamlakatlar orasida yurtimiz turizm salohiyatini yanada keng targ‘ib etish hamda turistik yo‘nalishlarimizni ommalashtirish maqsadida tashkil etilgandi. “STEP by STEP Productions” vakillari yurtimizga tashrifi davomida Toshkent, Marg‘ilon, Nukus, Buxoro Samarqand shaharlari hamda Mo‘ynoq, Bo‘stonliq tumanlarida bo‘lib, hudularning diqqatga sazovor joylarini tasvirga oldi. “Des train pas comme les autres⁴” Fransiyaning 1987-yildan beri efirga uzatiluvchi eng mashhur hujjatli seriallaridan biri. Keng auditoriyaga (1,5 million tomoshabin) mo‘ljallangan.

Televizion loyiha madaniy va sayyohlik xususiyatiga ega bo‘lib, tomoshabinlarni turli shaharlar va mamlakatlarning tabiiy hamda madaniy xususiyatlari, mahalliy aholining turmush tarzi bilan yaqindan tanishtiradi. Bundan telekanallar nafaqat chet elda balkimo‘zimizning hududlarimizda ham kengroq targ‘ib qilishimiz kerak deb o‘ylayman. Xalqaro reytinglarda muntazam ravishda O‘zbekistonning eng tinch davlatlardan biri sifatida qayd etilishi ham bunga imkon berdi. O‘zbekiston Global Peace Index 2017 tinchliksevar mamlakatlar reytingida dunyoning 163 mamlakati

¹ Asadova A. O‘zbekistonda turizmi barqaror rivojlantirishda xorijiy davlatlarning erkin turistik iqtisodiy zonalarini tashkil qilish tajribasini o‘rganish. “Ўзбекистонни топ 10 туристик хуудлар қаторига киритиш истикболлари: барқарор ривожланиш имкониятлари” мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий анжуман материаллари тўплами 2020 йил 11-12 декабр Б.185

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. 2014- yilda O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari sonining mamlakatlar bo‘yicha taqsimoti (rasmiy deklaratsiyadan o‘tganlar). B.1

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Yanvar-noyabr 2023- yilda O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari sonining mamlakatlar bo‘yicha taqsimoti (rasmiy deklaratsiyadan o‘tganlar), b.1

⁴ Madiyeva R. Fransiya telekanalida O‘zbekistonning turistik salohiyatiga doir yana bir ko‘rsatuv efirga uzatiladi. <https://yuz.uz/uz/.murojaat> etilgan sana.1.06.2021

ichida 101-o'rinni egalladi⁵. Albatta bunda reytinglarda joy olishi ham turizm sohasini keng rivojiga ulkan hissa qo'shadi.

Xorijlik mehmonlarni o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Yevropaliklarni asosan, eng ko'hna shaharlarimiz Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkentlarga kelish noyob arxitektura va ularni saqlanishi bilan bog'liq jarayonlarni o'rganish ko'proq qiziqtirgan. O'zbekiston Hindistonda bo'lib o'tgan «India's Best Awards - 2019» turizm tadbirining «Madaniy-tarixiy meros bo'yicha eng yaxshi turistik yo'nalish» nominatsiyasida g'olib bo'ldi. «India's Best Awards - 2019» tadbiri «Travel+Leisure» yetakchi xalqaro turistik jurnalining Hindistondagi vakolatxonasi tomonidan o'tkazildi⁶

Jumladan, yirik siyosatchi va davlat arboblari ham O'zbekistonning ko'hna shaharlari jumladan, 1994-yil Fransiya prezidenti Fransua Mitteranning tashrifi va fikrlarida ham anglash mumkin. Mitteran Fransiya tarixida alohida e'tiborga molik kishidir. Fransua Mitteran O'zbekistonni ko'rish orzusi bo'lgan. O'zbekiston tomonidan uni sayohat qildirgan insonlar keksa Mitteran o'limidan oldin O'zbekistonni bir marta bo'lsa ham borib ko'rishni orzu qilganini ta'kidlaydilar Ayniqsa, Xiva haqidagi «Umrida Xivani bir marta ko'rmagan fransuz, fransuz emas» quyidagi fikrlari ahamiyatga molik... Mitteran o'limidan oldin ham O'zbekistonni ko'rish orzusi bo'lgan. Va bu amalga oshirilgan. Jan-Per Tibodat, «Liberasion» gazetasi, 2004-yil 12-avgust sonida quyidagilarni yozadi... U o'limi yaqin ekanligini bilar edi. Ikki yildan ozroq umri qolgan edi. U Samarqandni ko'rishni xohlardi. Shu sababli respublika prezidentining orzusidagi sayohatni amalga oshirish uchun safar «davlat tashrifi»ga aylantirildi. 1994-yil aprelning oxirlarida Fransua Mitteran O'zbekistonga uchib ketdi. Bu sayohat shohona sayohat bo'ldi. Tashrif davomida Shohizinda, Amir Temur maqbarasi va bir qancha hududlarga tashrif buyurgan edi... Va kuchli taasurotlar uyg'otgan.. Bu va bu kabi tashriflar albatta faqat bir narsa quvontiradi, Fransua Mitteranday buyuk prezidentning O'zbekistonga sayohat qilishday buyuk orzusi armonga aylanib qolgani yo'q. U o'zidan keyingi avlodlarga, fransuzlarga eng yorqin o'rnak ko'rsatib ketdi. Balki so'nggi o'n yillardan beri O'zbekistonga tashrif buyuruvchi chet ellik turistlarning orasida fransuzlar birinchi o'rinni egallab kelayotganida shu o'rnakning ham hissasi bordir!

Ko'hna Samarqandning boy merosi Buyuk Britaniya ommaviy axborot vositalari diqqatini tortmoqda. Yaqinda ushbu mamlakatning eng nufuzli gazetalari – “Daily Express” va “Sunday Express” elektron portali – “Express.co.uk”da ko'hna Samarqandning sayyohlik salohiyatiga bag'ishlangan maqola e'lon qilindi.

Britaniya nashrida qayd etilishicha, qadimiy Samarqand turli madaniyatlar chorrahasi bo'lib ham xizmat qiladi. Muallif Samarqand merosi zamonlar va asrlar

⁵ O'zbekiston tinchliksevar davlatlar reytingida 8 pog'ona yuqoriladi. <https://kun.uz>. 02.06.2017

⁶ Kamolov X.Z. O'zbekiston turizm sohasini diversifikatsiya qilishda madaniy meros obyektlarining Roli. B.93 Ўзбекистонни топ 10 туристик худудлар қаторига киритиш истикболлари: барқарор ривожланиш имкониятлари” мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий анжуман

bilan chambarchas bog'liqligi, qadimiy shaharning rang-barang, boy tarixini o'rganishga intilayotganlar uchun tashrif buyurishga arziydigan maskan ekanini alohida qayd etgan. Samarqand dunyodagi eng go'zal shaharlardan biri sifatida tan olingan, kelgusida Yevropaning mashhur yo'nalishlari kabi ko'plab sayyohlarni jalb qilgan. Buyuk Britaniya ekspertlari Samarqand shahrini dunyoda ko'rilishi lozim bolgan 50 ta shahar ro'yhatiga kiritgan. Shu bilan birgalikda o'zbekistonga tashrif buyurgan aholining jinsi jihatda ham o'rganilganda, ko'proq qismini ayollar ekanligi aniqlandi. Xususan, 2022- yil yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining 49,2 % ini (922,3 ming kishi) erkaklar, 50,8 % ini (954 ming kishi) ayollar tashkil etdi. O'zbekistonga kelgan erkaklar va ayollar sonining tahlili 2018- yilning I yarim yilligida xorijlik fuqarolarning umumiy sonida erkaklar ulushi 47,5 % ni, ayollarning ulushi esa 52,5 % ni tashkil etganini ko'rsatmoqda⁷.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Asadova A. O'zbekistonda turizmi barqaror rivojlanitirishda xorijiy davlatlarning erkin turistik iqtisodiy zonalarini tashkil qilish tajribasini o'rganish. "Ўзбекистонни топ 10 туристик ҳудудлар қаторига киритиш истиқболлари: барқарор ривожланиш имкониятлари" мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий анжуман материаллари тўплами 2020 йил 11-12 декабр

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. 2014- yilda O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari sonining mamlakatlar bo'yicha taqsimoti (rasmiy deklaratsiyadan o'tganlar). B.1

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Yanvar-noyabr 2023- yilda O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari sonining mamlakatlar bo'yicha taqsimoti (rasmiy deklaratsiyadan o'tganlar)

4. Madiyeva R. Fransiya telekanalida O'zbekistonning turistik salohiyatiga doir yana bir ko'rsatuv efigra uzatiladi. <https://yuz.uz/uz/.murojaat> etilgan sana. 1.06.2021

5. O'zbekiston tinchliksevar davlatlar reytingida 8 pog'ona yuqoriladi. <https://kun.uz>. 02.06.2017

6. Kamolov X.Z. O'zbekiston turizm sohasini diversifikatsiya qilishda madaniy meros obyektlarining Roli. B.93 "Ўзбекистонни топ 10 туристик ҳудудлар қаторига киритиш истиқболлари: барқарор ривожланиш имкониятлари" мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий анжуман

7. Ismatullayev, F., & Ahmedova, S. (2019). Some problems of the cooperation of Uzbekistan and Italy. Scientific journal of the Fergana State University, 2(1), 113-114.

8. Журақулова, Ф., & Исматуллаев, Ф. О. (2023). РЕНЕСАНС ДАВРИ АЛЛОМАЛАРИ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ЕВРОПАДА ЎРГАНИЛИШИНING АЙРИМ ЖИХАТЛАРИ. Educational Research in Universal Sciences, 2(15), 208-212.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi (2022- yil yanvar-iyun, ming kishi)